



ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR IJODIDA VATANPARVARLIK TUYG‘USINING O‘RNI

Feruza Mustafoyeva Xurshid qizi

O‘zbekiston Milliy universiteti

Ijtimoiy fanlar fakulteti

2-bosqich talabasi

+998 90 829 07 08

mustafayevaferuza07@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada buyuk sarkarda va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning ijodida vatanparvarlik tuyg‘usining tutgan o‘rni va uning bugungi kundagi ahamiyati haqida fikr-mulohaza va xulosalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: temuriylar, “Boburnoma”, qomusiy olim, hijron, vatanparvarlik, nazm, musofirlik.

Аннотация: в данной статье представлены мнения и выводы о роли патриотизма в творчестве великого полководца и поэта Захируддина Мухаммада Бабура и его значении в наши дни.

Ключевые слова: Тимуриды, “Бобурнома”, энциклопедист, эмиграция, патриотизм, поэзия, путешествия.

Abstract: this article presents opinions and conclusions about the role of patriotism in the work of the great commander and poet Zahiruddin Muhammad Babur and its significance in our days.

Key words: Timurids, “Boburnoma”, encyclopedist, emigration, patriotism, poetry, traveling.

Bugun Yangi Ozbekistonni barpo etishni oz oldimizga maqsad qilgan ekanmiz, bu borada xalqimiz, millatimizning ong-u shuurida Vatanga muhabbat, sadoqat, fidoyilik kabi tuygularni uygotish zarur sanaladi. Bu yolda, albatta, manaviy-marifiy



sohadagi ishlarning samaradorligi va kolamini oshirish, mustahkamlashni birinchi vazifa sifatida tashkil etish joiz. Avvalo, vatanparvarlik tushunchasiga quyidagicha ta’rif berish mumkin: Vatanparvarlik — bu insonlarning ona Vataniga, o‘z diyoriga muhabbati, yurtiga sadoqatini ifodalaydigan tushuncha. Vatanparvarlik barcha xalq, millat, jamiyatlar uchun umumiy bo‘lgan, necha asrlar davomida sayqallanib, rivojlanib kelgan umuminsoniy tuyg‘u, ma’naviy qadriyatlardan biri hisoblanadi.

Ayni globallashuv, axborot xurujlari avj olgan paytda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasi davlat siyosati darajasidagi masalalardan biri bo‘lganligi bois, ushbu maqsadni ro‘yobga chiqarishda aniq rejalashtirilgan yo‘l xaritalarini ishlab chiqish lozim sanaladi. Zotan, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari” degan tamoyilga asoslangan holda, milliy g‘oya va uning mafkuraviy negizlarini puxta ishlab chiqish, yosh avlodni bolalikdan milliy g‘urur va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash dolzarb ahamiyatga ega.[1]

Bugun biz qayta-qayta takrorlayotgan vatanparvarlik timsoliga shonli tariximizdan juda ko‘p misollar keltirish mumkin. Ana shu vatanparvarlikning haqiqiy namunasi, avlodlar nazdida haqiqiy ibrat bo‘la oldigan shaxs – Zahiriddin Muhammad Boburdir.

Zahiriddin Muhammad Bobur – buyuk sarkarda, iste’dodli shoir, davlat arbobi, ulug‘ mutaffakkir, boburiylar sulolasining asoschisi va temuriy shoh. Uning qisqa ammo suronli hayoti nafaqat o‘sha davr uchun, balki bugungi kun uchun ham juda ibratlidir. Temuriylar avlodiga mansub ekanligi, shuningdek, oiladagi ham harbiy ham ma’naviy muhit uning kelgusi taqdirida katta rol o‘ynagan. Boburning onasi o‘qimishli va oqila ayol bo‘lib, unga hokimiyatni boshqarish ishlarida faol ko‘mak bergan, harbiy yurishlarida ham hamrohlik qilgan. Otasi — Umarshayx Mirzo Farg‘ona viloyati hokimi bo‘lgan.

Boburning yoshligi Andijonda o‘tgan. U barcha temuriy shahzodalar kabi maxsus tarbiyachilar, yirik fozil-u ulamolar ustozligida harbiy ta’lim, fiqh ilmi, arab va fors tillarini o‘rganadi, ko‘plab tarixiy va adabiy asarlar mutolaa qiladi, ilm-fanga,

she’riyatga qiziq boshlaydi. Bu ta’limlar keyinchalik uning ma’rifatli va baquvvat inson bo‘lishida muhim o‘rin egallagan.

Bu shaxsning hayoti mashaqqatli va shiddatli kechganligi uning mashhur “Boburnoma” asaridan yaxshi ma’lum.

1494- yilda Farg‘onada toj kiyganidan to 1504-yilda Kobulni zabt etishigacha o‘tgan davr Boburning hayotida qiyin yillar edi. Ammo u bu sinovlarda yengilmadi, balki uning irodasi yanada toblandi. Hayotida turli qiyinchiliklar va har xil vaziyatlarga duch kelgan Bobur o‘zidagi hislarni qalamga ko‘chiradi va tengsiz san’at namunalarini yaratadi.

“Boburnoma” – Zahiriddin Muhammad Boburning boshidan kechirgan barcha voqealarni haqqoniy, aniq, tushunarli, sodda va ravon yaratilgan asar. Ushbu asarni o‘qigan kitobxon Boburning qomusiy olim ekanligiga yana bir bor amin bo‘ladi. Hayot hodisalarini, butun tabiatdagi har bir jismni, voqealarni aniq tasvirlab beradigan boshqa adibni topish mushkul.

Taqdir taqozosi bilan o‘z Vatanidan uzoqda yashashga majbur bo‘lgan, hamisha yurtini qo‘msab o‘tgan Bobur asarlarida ham shu tuyg‘ularni ifodalagan. Adib musofirlikdagi Vatan hijronini turli tasvirlarda, misralar qatiga singdirib tasvirlaydi. Bobur yurtidan uzoqda bo‘lsa ham bir dam Vatanini yodidan chiqarmaydi. Har lahza unga qaytishni xayolidan qo‘ymaydi. U yozadi:

Ko‘pdin berikim yoru diyorim yo‘qtur,
Bir lahza-yu bir nafas qarorim yo‘qtur,
Keldim bu sori o‘z ixtiyorim birla,
Lekin borurimda ixtiyorum yo‘qtur.

Bobur ko‘pdan beri beqarorman, chunki diyorim yo‘q, undan yiroqdaman, bu yerga o‘z ixtiyorim bilan keldim, lekin borishimda ixtiyorim yo‘q edi, deya yozadi. Vatanidan yiroqda bo‘lgan insonning qarori ham ixtiyori ham bo‘lmaydi. Yana bir ruboiysida yozadi:

Tole’ yo‘qi jonimg‘a balolig‘ bo‘ldi,
Har ishniki ayladim, xatolig‘ bo‘ldi.

O‘z yerni qo‘yib, Hind sori yuzlandim,
Yo Rab, netayin, ne yuz qarolig‘ bo‘ldi.

Bu ruboiy ham Bobur fojialaridan so‘z ochadi, ya‘ni Bobur o‘z yurtiga qaytishga qanchalik urinmasin, unga erisha olmaydi. Minglab odamlarning behuda nobud bo‘lishini istamaydi. Ko‘nglida ming bir andisha bilan Hindiston sari yuzlanadi. O‘zini dunyoda eng baxtsiz odam hisoblaydi. Chunki u ona yurtini tashlab chiqdi. Endi begona ellarda podshohlik qilmoqchi. Bularning hammasi, uningcha, «xatolik» – xato ishlar edi.

Hajringda bu tun ko‘ngulda qayg‘u erdi,
Vaslingg‘a yetishmadim, jihat bu erdi:
Ohim tutuni birla ko‘zumning yoshidin
Yo‘l balchiq edi, kecha qorong‘u erdi.

Bu ruboiyda adib go‘yo yorining vasliga yetisholmagandek tasvirlanadi. Aslida vasliga yetisholmagan yor – Vatan. Bu tunda sening hajring sababli ko‘nglimda qayg‘u bor edi, lekin vaslingga yetisholmadim, degan shoir buning sababini hazil-mutoyiba orqali tasvirlaydi: yo‘l balchiq va kecha qorong‘u edi, deydi. Bu yerda bir jihatga e‘tibor berish kerak. Ko‘zining yoshidan yo‘l balchiq edi. Demak, shoir shunchalik ko‘p va qattiq yig‘laganki, uning ko‘z yoshlaridan yo‘l balchiq bo‘lgan. Uning yig‘lashiga sabab esa – ayriliq va Vatan sog‘inchi.

Adibning yana boshqa ruboiylarini tahlil qilish orqali ham xuddi shunday xulosaga kelish mumkin.

Ulug‘ mutafakkir Bobur san‘atni sevgan va u bilan shug‘ullangan inson bo‘lganligi uchun san‘at ahlini ham qadrlagan. Jumladan, Zahiriddin Muhammad Bobur buni juda muxtasar tarzda ifodalab bergan: «Alisherbek naziri yo‘q kishi erdi. Turkiy til bila to she‘r aytibturlar, hech kim oncha ko‘p va xo‘b aytqon emas. Olti masnaviy kitob nazm qilibtur, beshi «Xamsa» javobida, yana biri «Mantiq ut-tayr» vaznida «Lison ut-tayr» otliq. To‘rt g‘azaliyot devoni tartib qilibtur: «G‘aroyib ussig‘ar», «Navodir ush-shabob», «Badoyi ul-vasat», «Favoyid ul-kibar» otliq. Yaxshi ruboiyoti ham bor. Yana «Mezon ul-avzon» otliq aruz bitibtur... Forsiy nazmda



«Foniy» taxallus qilibtur. Yana musiqiyda yaxshi nimalar bog‘labtur. Yaxshi naqshlari va yaxshi peshravlari bordur». Bundan tashqari Bobur Alisher Navoiy xarakterini tasvirlab, uning talabchanligi va injiqligini, shaxsni tarbiyalashda uning iste‘dodidan quvonishini aytadi.

Bobur she‘r va g‘azallarida vatanparvarlik tuyg‘usi yaqqol ko‘rinib turadi. U shunday yozadi:

El bilmasa holatim, bilur yor,
Holimdin erur Xudoy ogoh.
Kobul sori gar azimat etsang,
Qurbon qilay o‘zni sanga, ey shoh!
Bobur yana o‘tluq oh chekting,
Kuydurmasun elni oh nogoh!

Adib garchi o‘zga yurtlarda shoh bo‘lsa ham lekin har on oh chekishini, har dam o‘z vatanini qo‘msab yashashini va bu holatidan faqat Xudo ogoh ekanligini aytadi.

Ma‘lumki, Bobur adolatli podshoh sifatida, hukmron bo‘lgan yurtlarda ham adolatli siyosat yuritdi. Xalqni ma‘rifatga, bunyodkorlikka chorladi. Ma‘naviy hayotga salbiy ta‘sir etuvchi omillardan voz kechib, jamiyat hayotida ularni taqiqlab qo‘ydi. Hind xalqi hayoti va madaniyatining gullab-yashnashiga yuksak hissa qo‘shdi. O‘zining ilm-u irfoni bilan ma‘rifatni yanada rivojlantirdi. Ammo umr bo‘yi uning xayolini Vatan, unga bo‘lgan intilish band etdi:

Ne yerda bo‘lsang, ey gul andadur chun joni Boburning,
G‘aribing‘a tarahhum aylagilkim, andijoniydir.

Bobur Navoiy yo‘lidan borib, yolg‘iz yordan judolik alamlarini kuylash bilan kifoyalanmaydi, balki bu hisga diyor firoqini ham uyg‘unlashtirib, Vatan sog‘inchini tarannum etadi. Uning she‘riyati haqida gapirganda, forsiy va turkiyda ham o‘zbek she‘riyatidagi mumtoz nozik o‘xshatishlar va nafis ohanglar orqali shoir go‘zal va ta‘sirchan misralar yaratgan. Qolaversa, u harbga oid so‘zlardan ham keng foydalanadi.

Manga oson durur bo‘lsa agar yuz ming tuman dushman,
Vale bo‘lmoq jahonda, ey ko‘ngul, beyor mushkuldur.



Ushbu baytda shoir garchi yuz ming shoirni yengish oson bo‘lsa ham biroq yorsiz ko‘nglim bilan jahonda hukmron bo‘lmoq menga mushkuldir, oson emas, demoqchi. Baytda ishlatilgan harbga oid so‘zlar ham misralar jozibadorligini orttirgan.

Hijron azobida qiynalgan mutafakkir quyidagi satrlarni bayon qiladi:

Agar sensizin sabr aylamak, ey yor, mushkuldur

Sening birla chiqishmoqlik dag‘i bisyor mushkuldur.

Chunki hijron azobi Boburga yot emas. U yoshlik yillaridayoq Andijondan ayrilib, Vatanidan uzoqda, besaru tanglikda yurishga majbur bo‘lgan. Shuning uchun ham hijron, ayriliq, Vatan sog‘inchi kabi mavzular Zahiriddin Muhammad Bobur ijodining asosiy mavzulari hisoblanadi.

Demak, Bobur ijodida vatan motivi g‘oyat yuksak ahamiyat kasb etadi. Zero, u o‘zga yurtda oshyon qurgan bo‘lsa-da, o‘z yurtini, o‘zligini unutmagan chin o‘zbek farzandidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bobur shaxsiyati va she‘riyati. Qamar Rayis. “Andijon nashriyot-matbaa” ochiq aksiyadorlik jamiyati. 2007.
2. Zahiriddin Muhammad Bobur. Aziz Qayumov. Toshkent. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. Fan nashriyoti. 2008.
3. Bobur armoni. Hasan Qudratullayev. “Sharq nashriyot-matba aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent – 2009.
4. Bobur davridagi Andijon adabiy muhiti. Xoja Yusuf Andijoniy. Aziz Qayumov. Toshkent “Mumtoz so‘z” 2009.
5. Bobur ijodida Vatan madhi. Nilufar Cho‘liyeva. “Yoshlik”, 2013-yil, 10-son.